

KONSTITUTSION NORMAGA ZID PROTSESSUAL AMALIYOT

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi
talabasi Mutalov Dilshodjon Qodirjon o'g'li*

*Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo'nalishi
talabasi Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li*

Annotatsiya: Bu maqolamda Bosh Qomusimiz bo'lgan yangi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan aybsizlik prezumpsiyasiga zid, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan uzoq yillardan buyon qo'llanib kelinayotgan, fuqarolarning shaxsiy nomulkiy huquqlariga tajovuz qilayotgan protsessual amaliyot hamda jinoyat protsessual kodeksida belgilangan norma haqida so'z yuritaman hamda bunday kollizion normaga yechim beraman.

Kalit so'zlar: Aybsizlik prezumpsiyasi, protsessual norma, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

A PRACTICE CONTRARY TO THE CONSTITUTIONAL NORM

Annotation: In this article, I will talk about the procedural practice, which is contrary to the presumption of innocence established in our new Constitution, which is considered our General Assembly, is being used by law enforcement agencies, which encroaches on the personal property rights of citizens, and the norm established in the criminal procedural code, and I will give a solution to such a conflict situation.

Key words: Presumption of innocence, procedural norm, law enforcement agencies

ПРАКТИКА, ПРОТИВОРЕЧАЩАЯ КОНСТИТУЦИОННОЙ НОРМЕ

Аннотация: В данной статье я расскажу о процессуальной практике, которая противоречит презумпции невиновности, установленной в нашей новой Конституции, которой считается наша Генеральная Ассамблея, используется правоохранительными органами, что посягает на права личной собственности граждан, и норму, установленную в Уголовно-процессуальном кодексе, и дам решение такой конфликтной ситуации.

Ключевые слова: Презумпция невиновности, процессуальная норма, правоохранительные органы.

Kirish. Avvalo aybsizlik prezumpsiyasi bu- lotincha praesumptio - taxmin, gumon so'zidan olingan bo'lib, shaxs huquqlari himoyasini ta'minlab beruvchi, asossiz

ayblash va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining umumiy demokratik tanmoyillaridan biri hisoblanadi. Ya'ni aybsizlik prezumpsiyasi bu aybdorning jinoyati qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyati sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Shuningdek bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi "Jinoyatlarni oldini olish choralari" deb nomlangan 36-bobi, 297-moddasida keltirilishicha: "Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, jinoyat ishini tergov qilish chog'ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlab chiqib, tegishli davlat organiga, fuqarolarini o'zini o'zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va sharoitlarni bartaraf qilish choralari ko'rish to'g'risida taqdimnoma kiritadi. Taqdimnomaning nusxasi ilova qilinadi." deyilgan. Bunday protsessual amaliyotdan ko'zlangan maqsad keyinchalik ayni shu hudud yoki jamoada yana shunday jinoyat sodir etilishini oldini olish, boshqa fuqarolarni shunday jinoyat qurboni bo'lib qolmasliklari uchun ogohlantirish, va boshqa shunga o'xshash tarbiyaviy masalalar hisoblanadi.

Asosiy qism. Milliy qonunchiligimizning poydevori bo'lgan Konstitutsiyamizning 28-moddasida "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi" deyilgan. Bu biz yuqorida ta'riflab o'tgan aybsizlik prezumpsiyasi hisoblanadi. Ushbu konstitutsion norma ko'plab demokratik, rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida ham keltirib o'tilgan bo'lib, bu shuni anglatadiki bizning konstitutsiyamiz ham eng demokratik konstitutsiyalar qatoriga kiradi. Ammo bunday umuminsoniy va xalqchil normani, yuqorida keltirganimiz JPK 297-moddasida keltirilgan hali tergov qilish chog'ida bo'lgan jinoyat ishi yuzasidan gumonlanuvchining yashash joyi, ish joyi, yoxud uning o'qish joyiga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan gumonlanuvchini ismi, familiyasi, otasining ismi, yoshi, yashash manzili shuningdek u qaysi jinoyat bo'yicha tergov qilinayotgani, va uning jinoyatiga shart-shoit yaratib bergan taxminiy tashqi omillar, jinoyatchinibng jinoyat sodir etilishining muqobil sabablari, jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratib bergan holatlar, jinoyatning oqibatlarini ko'rsatib o'tiladi, hamda bunday sabab va oqibatlarni oldini olish bo'yicha ko'rilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar va taqdimnomani jamoa orasida muhokama qilish hamda tushuntirish ishlarini o'tkazish to'g'risida ko'rsatma beriladi. Hamda ushbu taqdimnoma muhokamasi va natijalari bo'yicha hisobotni uzog'i bir oy ichida habar berilishi haqida aks holda javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi. Ammo shubi ham e'tiborga

olishimiz kerakki 2016-2022 yillarda 421 468 nafar shaxsga nisbatan 324 463 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqilgan. Shundan 4740 nafar shaxs oqlangan. Bu yillarda chiqarilgan oqlov hukmlari oldingi davr bilan solishtirganda 43 barobarga ko‘paygan. Ushbu statistikadan ko‘rinib turibdiki tergov oxirigacha gumonlanuvchi shaxs bunday shubhalardan forig‘ bo‘lishi mumkin agarda uni aybi tergov jarayonida bo‘yniga qo‘yilsa ham sud tomonidan u aybsiz deb topilishi mumkin. Buning oqibatida esa gumonlanuvchining shaxsiy nomulkiy huquqlari: sha‘ni, qadr-qimmatiga daxl qilinib, shaxsni avvalgi normal hayoti va ishiga qaytishini jamiyatga qo‘sjhilib keta olishini qiyinlashtiradi va unga ma‘naviy zarar yetkazilishiga olib keladi. Nafaqat unga balki uning oila a‘zolarining ham ota-onasi, faqrzandlari va boshqa yaqinlariga ham ma‘naviy zarar yetkazadi farzandlarining kelajagiga muayyan miqdorda to‘siqlar qo‘yilishiga sabab bo‘ladi.

Bunday muomoli vaziyatga bir nechta yechimlar taqdim etishimiz mumkin. Konstitutsiyamizning 16-moddasi 2-bandida “ O‘zbekiston respublikasining qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi. Birorta qonun Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas” deb ko‘rsatilgan. Shu normaga ko‘ra JPK ning konstitutsion norma bo‘lgan aybsizlik prezumpsiyasiga zid 297-moddasini bekor qilish ilk favqulodda yechim bo‘lishi mumkin. Ammo shuni ham unutmasligimiz lozimki jinoyat protsessual qonunlarning asosiy vazifasi jinoyatlarni oldini olish bo‘lmasada, agar ushbu protsessual harakat vijdonana bajarilsa kelgusidagi huddi o‘sha toifadagi jinoyatlarni qisman kamayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, bir shaxs hakkerlik yo‘li bilan fuqarollarning bank kartalaridagi pulni ijtimoiy tarmoqlarda virusli link tarqatish yo‘li bilan o‘zlashtirdi va bu shaxsni ushladi, tergov jarayonida esa bu shaxs fuqarolarni kartalaridagi pullarni qanday qilib yechib olishi ma‘lum bo‘ladi. Tergovchi esa bu bo‘yicha taqdimnoma kiritadi va jamoat birlashmalari kolegiarlar buni muhokama qilishorqali bunday hakkerlik hujumidan himoyalanih yo‘llarini o‘rganadilar va shubhali linklardan ehtiyot bo‘ladilar buni natijasida bunday jinoyatlarga imkon yaratayotgan omillar bartaraf etiladi. Demak bu protsessual amaliyotni bekor qilish biz faraz qilgandek har tomonlama o‘ylangan samarali yo‘l emas ekan.

Ho‘sh unda yana qanday yechim bor?

Keyingi yechim bu JPK dagi 297-modda normasiga o‘zgartirish kiritilishi bo‘lishi mumkin. JPK ning 297-moddasiga ko‘ra taqdimnoma surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan tergov chog‘ida kiritiladi. Agarda ushbu normani aybsizlik prezumpsiyasiga moslashtiradigan bo‘lsak, taqdimnoma shaxsning aybi sud tomonidan tasdiqlanib, sudning hukmi qonuniy kuchga kirgandan so‘ng kiritilishi kerak. Shundagina taqdimnoma kiritish aybsizlik prezumpsiyasiga zid bo‘lmaydi. Ammo biz yana taqdimnoma kiritish to‘g‘risidagi norma mazmuni va mohiyatiga

yaxshilab e'tibor beradigan bo'lsak, taqdimnoma jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan emas sodir etilgan jinoiy holatga nisbatan ushbu toifadagi jinoyatlarni iloji boricha tezkorlik bilan oldini olish maqsadida kiritiladi belgilangan bir oylik muddatdan ham aslida shuni ko'zlangan. Lekin agarda sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan so'ng taqdimnoma kiritish belgilanadigan bo'lsa, bu norma ayni o'sha toifadagi jinoyatlarni oldini olish uchun operativ tarzda choralar ko'rilishini ancha uzoqqa cho'zib yuborishi mumkin chunki tergov harakatlari va sud protsessi ba'zi ishlar bo'yicha yillab cho'zilishi hech kimga sir emas. Bu oraliqdagi muddatda esa bu toifadagi jinoyatlar sonini yanada oshib ketishiga imkon yaratib berishi mumkin. Masalan, muayyan hududda inson a'zolari transplantatsiyasi uchun bola o'g'irlab ketilsa bu jinoyat fosh etilib, sud hukmi o'qilgunga qadar jinoyatchining boshqa sheriklari yana nechtalab norasidalarini tirik donor sifatida olib qochishlari mumkin? Bu vaziyatda jinoyat holati qayd etilishi bilanoq fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organiga taqdimnoma kiritilib, ota-ona va farzandlikka oluvchilarga o'z farzandlarini xavfsizligi uchun kerakli choralar ko'rilishi haqida tushuntirishlar berib, vaziyat muhokama etilishi lozim. Demak shu tomondan yondashiladigan bo'lsa, yuqoridagi yechim ham ziddiyatga to'liq, samarali va har tomonlama yechim bo'lolmas ekan.

EEng maqbul va samarali yechim sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, agarda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror JPK ning 297-moddasida ko'rsatilgan taqdimnomani jinoiy holat qayd etilishi bilan, gumonlanuvchini shaxsini, ismi, familyasi, otasining ismi, aniq yashash joyi, yoshi va boshqa gumonlanuvchini individuallashtiradigan ma'lumotlarni berkitgan holda anonim tarzda jinoiy holat sodir etilgan joydagi fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish oraniga va boshqa masul organlarga yoki gumonlanuvchining yashash joyidagi fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish oraniga, ish joyiga, yoxud o'qish joyiga taqdimnoma kiritilishi orqali jinoyatlarni sodir etilishiga imkon yaratayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida, hech kimning shaxsiy nomulkiy huquqlari, sha'ni qadr-qimmatiga daxl qilmagan holda bartaraf etish imkoniyati vujudga keladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bunday konstitutsion norma bo'lgan aybsizlik prezumpsiyasiga zid, fuqarolarni sha'ni, qadr-qimmatiga daxl qilayotgan protsessual norma biz yuqorida keltirib o'tgan yechimlarni xisobga olgan holda hech kimning huquqlarini buzmaydigan tarzda, o'z vaqtida protsessual funksiyasini amalga oshira oladigan qilib o'zgartiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145>
- 2) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi <https://lex.uz/acts/111460>

- 3) Kun.uz sayti <https://kun.uz/60121942?q=%2Fuz%2F60121942>
- 4) Kun.uz sayti <https://kun.uz/29340940?q=%2Fuz%2F29340940>
- 5) Wikipedia sayti https://uz.wikipedia.org/wiki/Aybsizlik_prezumpsiyasi

